

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.5

QOBILJONOV SAIDAZIZ O'LMAS O'GLI

**TIJORAT BANKI RESURSLARINI SHAKLLANTIRISHDA DEPOZIT
OPERATSIYALARINING AHAMIYATI**

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutahassisligida
Magistr akademik darajasini olish uchun tayorlangan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: PhD. M.B.Mo'minova

Toshkent – 2019

Annotatsiya


Ushbu tadqiqot ishida tijorat banki resurslarini shakllantirishda depozit operatsiyalarining ahamiyati tadqiq qilingan. Tijorat banklarining depozit operatsiyalarining nazariy va statistik tahlillar asosida yoritilgan. Bank resurslarini shakllantirish manbalari, depozit siyosati va bu bilan bog'liq muammolar ochib berilgan. Depozit operatsiyalarini takomillashtirish yo'llari ochib berilgan.

Abstract

The role of deposit operations in the formation of commercial bank resources has been studied in this research. Theoretical and statistical analysis of deposit operations of commercial banks is illustrated. The sources of banking resources, deposit policy and related issues are explained. There are ways to improve deposit operations.

Magistrlik dissertatsiyasi «Bank ishi» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan. 23 -sonli bayonnoma «15» may 2019 yil.

Ilmiy rahbar : PhD. M.B. Mo'minova


imzo

_____ sana


Magistr: S.O'.Qobiljonov


imzo

_____ sana

«Himoyaga tavsiya etiladi»

«Bank ishi» kafedrasi mudiri,
PhD. U.S.H. Duskobilov


«31» may 2019 y.

Magistlik dissertatsiyasi himoyasi 2019 yil «17» may soat 14.00 da
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo'lib o'tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. BANK RESURLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA ILMIY ASOSLARI.....	8
1.1. Bank resurslarining mohiyati va ularning nazariy asoslari.....	8
1.2. Tijorat banklarining depozit operatsiyalari va ularning tavsifi.....	19
1.3 Bankning depozit siyosati, uning elementlari va mezonlari.....	29
I bob bo'yicha xulosalar.....	35
II BOB. TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINING TAHLILI.....	37
2.1. Tijorat banklarining depozit mablag'larini jalb qilishning amaldagi mexanizmi.....	37
2.2. Respublikamizdagi tijorat banklarining moliyaviy resurs bazasi tahlili.....	46
2.3. O'zbekiston Respublikasi TIF milliy bankining resurslarining shakllanishi va uning tahlili.....	55
II bob bo'yicha hulosalar	62
III BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI.....	64
3.1. Tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirishda depozit operatsiyalarining o'rni.....	64
3.2. Tijorat banklarida depozit mablag'larini jalb qilishdagi muammolar va uni bartaraf etish yo'llari.....	67
3.3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida bank depozit siyosatini takomillashtirish yo'llari.....	73
III bob bo'yicha hulosalar.....	77
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	82
ILOVA.....	88

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Mamlakatimizda resurslarni jalb qilish tijorat banklari uchun asosiy faoliyatlar va birinchi darajadagi ahamiyatga ega bo'lgan vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotda bo'sh mablag'lar qolishi ulardan yetarlicha samarali foydalanmaslik jamg'armalar shakllanishiga salbiy ta'sir etadi. Banklarning depozitlar va banklararo kreditlarni jalb qila olish qobiliyatlari ular bozorining boshqa qatnashchilari tomonidan qanchalik tan olinishini belgilab beradi.

Xalqaro moliya bozoriga integratsiyalashuv sharoitida tijorat banklari oldida xalqaro tartibga soluvchilar tavsiya etayotgan standartlarni qabul qilish va talablarga javob berish zamonaviy tendentsiyaga aylangan. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 6 maydagi PQ-2344-sonli "Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2018 yil 25-oktyabrda 3079-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari bilan depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi" Markaziy bank Boshqaruvining 2018 yil 22 sentyabrdagi 30/13-son qarori va boshqa bir qancha me'yoriy-xuquqiy xujjatlari tijorat banklari depozitlarini mustahkamlab borishga qaratilgandir. Bu borada, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzasida: "«Bugungi kunda bank tizimidagi eng asosiy muammo – ular kapitalining asosiy qismi, ya'ni, 83 foizi davlatga tegishli ekanidir. Bu, o'z navbatida, bank sektorida sog'lom raqobatga to'siq bo'lib, xizmat ko'rsatish sifatiga salbiy ta'sir qilmoqda» deya ta'kidladilar¹.

Bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, shu jumladan O'zbekistonda ham tijorat banklari faoliyatini tekshirishda "CAMELS" reyting

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 29 dekabr 2018 yil.